

ZAMONAVIY MAKTAB O'QITUVCHISINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Nabiyeva Mahliyo Abdug`Afforovna

Namangan viloyati Kosonsoy tumani

Maktabgacha va maktab ta`limi bo`limiga qarashli

36-umumta`lim maktabi amaliyotchi psixolog

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy pedagog shaxsi va uning obrazi, o`qituvchi shaxsiga qo`yiladigan talablar, uning psixologik xususiyatlari va hozirgi zamon o`qituvchisi qanday bo`lishi kerakligi yoritib berilgan. Pedagogik mahorat o`qituvchi sifatining muhim tarkibiy qism, o`quvchi bilan ishlash texnikasi kabi masalalar ham yoritilgan.

Kalit so`zlar: zamonaviy o`qituvchi, psixologiya, pedagogik mahorat, pedagogik muloqot ijodkor, notiq, tashabbuskor

“O`qituvchi – deydi Al Farobi, - aql-farosatga, chiroqli nutqqa ega bo`lishi va o`quvchilarga aytmoqchi bo`lgan fikrlarini to`la va aniq ifodalay olishni bilmog‘i zarur”. U o`z fikrini davom ettirib: “O`qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o`xshaydi, shu sababli o`qituvchi eshitgan va ko`rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroqli nutqqa ega bo`lishi, o`qituvchilarga aytmoqchi bo`lgan fikrlarini to`la va aniq ifodalab berishni bilmog‘i lozim. Shu bilan birga o`z or-nomusini qadrlashi,adolatli bo`lmog‘i lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo`ladi va baxt cho`qqisiga erishadi”.

Zamonaviy maktab o`qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O`qituvchi - sinfdagi o`quv jarayoni tashkilotchisidir. O`qituvchi o`quvchilar uchun dars paytida, qo`sishimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari holatlarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbaidan biridir. Ko`pchilik o`qituvchilar sinf rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo`lib hisoblanadilar.

Zamonaviy o`qituvchi ijtimoiy psixolog bo`lishi kerak va o`quvchilar o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni yo`lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir.

O`qituvchi maktabning pedagog jamoa a`zosi sifatida maktab, hayoti faoliyatini uyushtirishda bevosita ishtirok etib, turli fan o`qituvchilari va sinf rahbarlarining metodik birlashmalarida ishlaydi, topshiriqlarni bajaradi. Har bir o`qituvchi, o`quvchilarning ota-onalari va jamoatchilik oldida ma`ruzalar o`qib, suhbatlar olib borar ekan, demak, u pedagogik bilimlar targ`ibotchisi hamdir. Vazifalarning shu qadar ko`pligi uchun ham jamiyatning o`qituvchilar oldiga qo`yadigan talablari tushunarlidir.

O'kituvchining mustaqil bilim egallashi va malakasini oshirish pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirishda zaruriy shartlaridandir. Sharq mutafakkirlari o'kituvchi o'zi o'qib tursagina - o'kituvchi bo'la oladi, agar u o'kishni to'xtatib ko'yarsa ekan, unda o'kituvchilik qam o'ladi, deb juda qkkoniy aytganlar. Bu qaqiqatni yoshi qanday bo'lishidan, pedagogik maqoratidan, qanday dars berishidan qat'iy nazar barcha o'qituvchilar yaxshilab bilib olishlari lozim.

Nosiriddin Tusiy o'zining "O'qituvchilarni tarbiyalash to'g'risida" degan asarida shunday deydi: "O'qituvchi munozaralarni olib borishni, rad etib bo'lmaydigan darajadagi isbot qilishni bilishi, o'z fikrlarining to'g'riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumlalari mantiqiy ifodalanadigan bo'lishi lozim. O'qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda zaxarxanda, qo'pol yoki qattiq bo'lishi mumkin emas. Dars paytida o'qituvchining o'zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin".

Stresslar inson psixikasining turli jabhalarini qamrab olishi mumkin. Bu, eng avvalo, umumiy hissiy fonda aks etadi, ya'ni kishi g'amgin, ma'yus, pessimist bo'lib qoladi. Uzoq muddat davom etgan stress ta'sirida inson normal holatdagiga nisbatan behalovat, muvaffaqiyatga nisbatan ishonchi sust bo'lib qoladi. Kuchli stress holatini yengillashtirish o'z kechinmalarini nutq orqali ifodalash orqali yoki biror jismoniy mashg'ulotni bajarish tufayli amalga oshirilishi samarali natija beradi.

Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatini o'zlashtirish va o'z individual ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular insonning ichiga kiradi. Shaxsning tafakkuri, olamni va o'zining obrazini tahlil qilish hamda baholash qobiliyati muloqot jarayonida shakllanadi. Mazkur muammoga atroflicha baho bergan polshalik psixolog E.Melibruda quyidagilarni ta'kidlaydi: "Muloqot shaxslararo munosabatlarda biz uchun havodek ahamiyatga egadir". Muloqot - subyektlarning belgilari tizimi orqali o'zaro ta'sirlanishidir.

Stress jismoniy harakatlar yetarli darajada bo'lmaganida yanada kuchayadi. Shuning uchun ham ehtiros va jazava kuchini muskullarga yo'naltirish lozim. Masalan, oddiy imtihonni kutish paytida bir joyda o'tirib kutgandan ko'ra harakatda bo'lish, u yoqdan bu yoqqa yurish osonroq kechadi.

Inson vaziyatni o'ta og'ir deb idrok etayotganida bosh miya po'stlog'ida dominant qo'zg'alish o'chog'i yuzaga keladi. Bu vaziyatda insonga yordam berish uchun unga yangi dominant qo'zg'alish o'chog'ini yuzaga keltirishi lozim. Bosh miya po'stlog'idagi yangi qo'zg'alish o'chog'i uning kuchini kamaytiradi va ba'zan umuman bosib ketadi. Masalan, ichki nizolar tufayli kuchli ruhiy tenglik holatida turgan inson o'ziga yaqin odamiga havf tahdid solganda o'z kechinmalarini unutib, butunlay sog'ayib ketadi. Albatta, bunday vaziyatlarda jamoatchilik ishlariga

chalg'ish, ilmiy yoki badiiy ish bilan shug'ullanish shaxsiy kechinmalarning yengillashishiga yordam beradi.

U.Kennon yana shuni ta'kidlab o'tadiki, organizmni stressga qarshi kurashish yoki qochish vaqtida yurak urishi tezlashadi, qon aylanishi buziladi, ya'ni maqsadga intilish uchun tayyorgarlik ko'rishda organizmda qochish va kurashish kechadi. Bu reaksiyani u organizmning moslashish tizimi deb ataydi. Kuchli hissiy zo'riqish holatida bo'lgan insonga turli yupatish so'zлari orqali ta'sir qilishga harakat odatda hech qanday samara bermaydi, chunki u bu suhbatdan o'z emosional holatiga mos keladiganlarini tanlab olib idrok etadi va e'tiboriga oladi. Insonni xafa bo'lma, g'am-tashvish sen o'ylaganchalik emas, deb yupatish unda alam hissini yuzaga keltirishi, hech kim meni tushunmaydi degan tasavvurga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlarga qaramay o'zlashtirishning turli bosqichlarida o'qituvchi bilan o'quvchilarining turlicha hamkorligi qanday uyushtirilishi masalasi hal bo'lgan emas. Binobarin, o'qituvchida o'quv faoliyatini hamkorlik asosida tashkil qilish ko'nikmalari yo'qligi qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Xulosa kilib, shuni aytish joizki, o'kituvchining barcha ijobiy, umuminsoniy axlok me'yorlariga mos keluvchi xislatlari katta aqamiyatga ega. Agar biz quyidagi xislatlarini olib karaydigan bo'lsak, bularning barchasi qam o'ta muqim omillardir. Jumladan, o'kituvchining tashki kiyofasi uning obro'si shakllanishiga ta'sir etadi. O'kituvchining ozodaligi, ixchamligi, uning pokizaligi, saranjom - sarishtaligi, o'zini chiroyli tutishi kaddi-komati va yurish-turishlari o'quvchilarda juda yaxshi taassurot koldiradi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat. 2008 – 56 b
2. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisi psixologiyasi. Toshkent, 1998 y.
3. Ergashev P.S. Muloqot psixologiyasi. –T.: 2003, -48 s.
4. G'oziyev E.G'. Oliy maktab psixologiyasi. –T.: 1997.